



KITOB SHEVASIGA XOS SO'ZLARNING OMONIMIK JIHLTLARI

Bahriddinova Sarvinoz

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi I-bosqich talabasi

Annotatsiya: Yurtimizdagi barcha viloyat, tuman, shahar, qishloq, va ovullarning o'ziga xos shevalari mavjud. Har bir shaharning shevasi bir - biridan farq qiladi. Ushbu maqola orqali Qashqadaryo vohasi Kitob tumani shevasiga xos bo'lgan sozlarning "O'zbek tili izohli lug'ati" sozlari ortasidagi omonimik jihatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Sheva, o'zbek tili izohli lug'ati, dealiktal so'zlar, xalq nutqi.

Abstract. In our country, all regions, districts, cities, and villages have their own dialects. The dialect of each city is different from each other. Through this article, the words characteristic of the dialect of the Kitob district of the Kashkadaryo oasis were studied between the words of the Uzbek language explanatory dictionary.

Key words. Dialect, explanatory dictionary of the Uzbek language, dialect words, folk speech.

O'zbek xalqi tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy xarakter va holatlarning ifodasi bo'lmish so'zlar qariyb ming yildan beri izohli lug'atlarda izohlanib kelayotganligi ma'lum.

Maxmud Qoshgariy XI asrda "Turkiy so'zlar devoni"ni tuzib turkiy so'zlarga arab tilida izoh va talqin bergan. 2006 - 2008 yillarda 5 jildli yangi "O'zbek tilining izohli lug'ati" yaratildi. Lug'atda 80000 ga yaqin so'z va iboralar izohlangan. Bu lug'atlar tarkibida shevaga xos so'zlar ham o'rin egallagan.

Turli xil yozma manbalarda asosan badiiy va publisistik ilmiy rasmiy nutq uslublarida yozilgan asarlarda qo'llangan so'zlar lug'atga kiritilgan.

Xalq nutqi azal - azaldan adabiy tilni boyituvchi bosh manba hisoblanadi. Xalq sozlashuv nutqi jonli muloqot jarayoni. Nutqiy jarayon hamisha tirik hayotiy amaliy va davomli faoliyat. Bu jarayonda sozlarning manolari ortadi yangi so'zlar yaratiladi. So'z ijod qilish xalq tafakkurining ijodiy jarayoni. Qashqadaryon viloyatining shahar va

qishloqlari aholisi nutqidan yozib olingan sakkiz mingdan oshiq sòzlar majmui xalq sòzlashuv jarayonining naqadar boy sermahsul ekanligini kursatadi.

Qashqadaryo viloyatlarida Kitob , Koson , Muborak , Chiroqchi , Shahrisabz , Yakkaboğ , Qarshi kabi tuman va shahar qishloqlar òrin egallagan . Qashqadaryo vohasi xalq sòzlari shevashunoslik nuqtai nazaridan òtgan asrning 60 - yillaridan boshlab òrganilgan . Bu sòzlar "Òzbek tilining izohli luğati"dan ham joy olgan bòlib bir biridan farq qiladi .

Sheva (fors - harakat tarzi tarz usul) tilning tilning fonetik grammatik va luğaviy jihatdan òziga xos xususiyatlariga ega . Shevalar tilshunoslikning dialiktologiya bòlimida òrganiladi. Shevalar òz navbatida aholining qayerdan va qaysi uruğdan ekanligini ham ifodalaydi .

Masalan.

Yoqtu

Diğiriq

Xaraz ,Secha , uchuk. Bu sòzlarni ishitib sòzlovchiga Xorazimlikmisiz deb murojat qilamiz. " Yaqtu " Xorazm shevasida ushbu sòz " yoruğ " ma'nosini ifodalaydi .

Shevalarimiz bizning tariximiz milliy an'analarimizni , qadriyatlarimizni urf - odatlarimizni guvohidir shevalar òtmishimizni kelajagimizni òzaro boğlab turuvchi aloqa demakdir. Qashqadaryo shevasi ham boshqa shevalardan tubdan farq qiladi . Quyida ularning bazilarini kòrib chiqamiz .

1. (Baxshida) (Òzbek tilining izohli luğatida)

Bağishlamoq , ato qilmoq , hadya qilmoq

Mehmonlar ham fotihani yoshi òzlaridan uluğroqlarga baxshida etishdi.

Yoshlik

(Baxshida) (sheva Kitob)

Unashtirilgan qiz ,òğil

Bu qiz baxshida qilingan



2. (Dòlcha) (Òzbek tilining izohli luğatida) Hovuzdan meshga suv olishda ishlatiladigan charm idish chòmich. Misdan chuqur kosaga òxshatib yasalgan ròzgor buyimi. (Dòlcha) (sheva kitob) Usti sirlangan yo oq metaldan tayyorlangan kichik suv idishi.

3. (Qayishqoq) (Òzbek tilining izohli luğatida) Egiluvchan , egilsa ham sinmaydigan qayishqoq metall ,qayishqoq yoğoch. Kichik va òrta yoshdagi maktab bolalari gavdasining suyaklari tarkibida organik moddalar juda kòp buladi, shuning uchun ham qayishqoq buladi.

Fan va turmush

(Qayishqoq) (sheva Kitob)

Yaxshi ishlov berilganligi sababli muloyim , egiluvchan , bulgan teri.

4. (Qaytish) (Òzbek tilining izohli luğatida)

Qaytishmoq felining birgalik nisbati.

(Qaytish) (sheva Kitob)

Vafot , Òlim

Otasi qaytish qipti.

5. (Qalama) (Òzbek tilining izohli lugatida)

Qalama ustma - ust , yonma yon , yoki tartibsiz ravishda tiqishtirib tòldirib taxlamoq.

Gazlamalarni aravalarga toğ - toğ qalab olib kitadilar.

Oybek (Tanlangan asarlar).

6. (Qorxat) (Òzbek tilining izohli lugatida)

Birinchi qor yoqqan kuni ziyofat berishni taklif qilib tanish kishilarga olib borib beriladigan maktub. Birinchi qorning òziga yarasha gashti bòladi.

M.Qoriyev

(Qorxat) (sheva Kitob)



Birinchi qor yoʻgishi bilan yaqin munosabatdagi kishilar bir biriga yozib yuborgan xat. Dalamizdagi qòshnilar bilan qorxat yozishganlarimiz yodinga tushdi. Oydin kechalar

Muhokama.

Shuni takidlab òtish kerakki har bir hududning òziga xos shevasi mavjud. Shu jumladan ularning omonim jihatlarini òrganishda samarali yondashuvlar olib boriladi. SH .Rahmatullayev " Òzbek tilining etimologik luğati " 3 jild 2009 yil. 2008 y Sh. Rahmatillayev " Òzbek tili omonimlarining izohli luğati "

Shu kabi kòplab olimlar 1984 y izlanishlari natijasida òrganilib kilinmoqda. Quyida òrganilgan Qashqadaryo vohasi Kitob tumaniga qarashli shevaga xos sòzlarning bir qancha luğatlar tarkibidagi sòzlar bilan òzaro omonim jihatlar òrganildi.

Xulosa

Ushbu sòzlar Qashqadaryo vohasi Kitob tumani aholisining shevasiga xos bòlib ular har doim òz òrniga ega. Bu sòzlar orqali aholi nutqi sizilarli darajada òsib bormoqda. Kòrib chiqilayotgan ushbu shevada xos sòzlar nafaqat òz foydalanilayotgan hududi balki boshqa bir hudud aholisi uchun ham tushunarli bòlib , bu sòzlar òzbek dialogiyasining bir necha qismini tashkil etadi .



Foydalanilgan adabiyotlar ròyxati

1. Qashqadaryo òzbek xalq sòzlari T.Nafasov 2011 yil
2. Sh. Rahmatullayev " Òzbek tilining etimologik luğati " 2009 yil.
3. Sh.Rahmatullayev " Òzbek tili omonimlari izohli luğati " 1984 yil.
4. Òzbek tilining izohli luğati . 2006 - 2008 , 2013 yil
5. Shodievich, S. H., Roziqovna, R. M., & Hamzaevich, S. J. (2023).

BUGUNGI KUN KITOBLARI QANDAY BO ‘LISHI KERAK. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(1), 19-24.

6. 5. Shodievich, S. H., & Roziqovna, R. M. (2023). OLIY O ‘QUV YURTLARIDA MASHG ‘ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARNING O ‘RNI. PEDAGOGS jurnali, 25(1), 52-55.

